

## MEDIASAVODXONLIKNI OSHIRISHDA VR LABORATORIYANING TASHKILYI MODUL MEXANIZMI

*Bo'ronov Nazim, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
mustaqil izlanuvchisi*

## ОРГАНИЗАЦИОННЫЙ МОДУЛЬ МЕХАНИЗМ VR ЛАБОРАТОРИИ В ПОВЫШЕНИИ МЕДИАГРАМОТНОСТИ

*Бурунов Назим, независимый исследователь Узбекского  
государственного университета мировых языков*

## ORGANIZATION MODULE MECHANISM OF VR LABORATORY IN IMPROVING MEDIA LITERACY

*Buronov Nazim, Independent researcher of Uzbekistan  
State University of World Languages*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada VR-texnologiyalaridan foydalangan holda jurnalistika fakulteti talabalarining mediasavodxonligini oshirishning zamonaviy imkoniyatlari, tashkiliy-tuzilmaviy mexanizmi xususida so'z boradi. Mazkur maqola mavzusi yuzasidan xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari tadqiq etilib, mavjud muammo yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** VR texnologiyalari, mediasavodxonlik, jurnalist talabalar, virtual muhit, vizual kontent imkoniyatlari, ta'lim samaradorligi.

**Abstract:** This article talks about the modern possibilities of improving the media literacy of journalism faculty students using VR-technologies, and the organizational structure mechanism. Regarding the topic of this article, the scientific research works of foreign and local scientists are researched, and relevant suggestions and recommendations are given regarding the existing problem.

**Key words:** VR technologies, media literacy, journalism students, virtual environment, visual content opportunities, educational effectiveness.

**Аннотация:** В данной статье говорится о современных возможностях повышения медиаграмотности студентов факультета журналистики с использованием VR-технологий, а также о механизме организационной структуры. По теме данной статьи исследованы научные исследования зарубежных и отечественных ученых, а также даны соответствующие предложения и рекомендации относительно существующей проблемы.

**Ключевые слова:** VR-технологии, медиаграмотность, студенты-журналисты, виртуальная среда, возможности визуального контента, эффективность образования.

**KIRISH.** Bugungi kunda OTM talabalarining turli sohalarga ixtisoslashuv masalalarida innovatsiyon ta'lim texnologiyalaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan kun sayin globallashuv davrida axborot saralash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladigan

“Mediasavodxonlik” fan predmetini zamonaviy standartlarda tashkil qilish juda muhimdir. Ushbu maqolada jurnalistika fakulteti talabalarini uchun tashkil qilingan “Mediasavodxonlik va faktcheking” faninidan VR laboratoriyaning tashkiliy modul mexanizmini ishlab chiqish xususida so'z boradi.



[https://orcid.org/  
0009-0000-4645-5201](https://orcid.org/0009-0000-4645-5201)

e-mail: :  
[boronovnazim@gmail.com](mailto:boronovnazim@gmail.com)

**ADABIYOTLAR SHARHI VA METODLAR.** Global axborot makonida kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan takomillashib bormoqda. Internet jahon tarmog'ining imkoniyatlari ulkan tartibsiz **medialandshafni** tashkil qildi. Mazkur medialandshaf doirasida insonlarning axborot iste'moliga bo'lgan talabi kun sayin ortib **axborot madaniyati** tushunchasi og'riqli muammoga aylandi. Shunday bir tahlikali zamonda to'g'ri axborotni topish va uni saralash hamda qabul qilish ko'nikmasiga ega bo'lish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko'nikma ilmiy tadqiqotlarda **“mediasavodxonlik”** [Намазов Б., Файзиёва М., Джалилов Ф. 2018.Б-14.] deya ta'riflanadi. Xorijlik tadqiqotchilar yoshlarda mediasavodxonlik ko'nikmasini shakllantirishda ta'lim orqali samarali natijaga erishish mumkin, deb hisoblaydi. Ammo, har bir fan predmetiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan dars soatlarini tashkil qilish zaruratini keltirib chiqaradi. **Xo'sh, zamonaviy mediasavodxonlik dars soatlarini tashkil qilishda qanday texnologiyalardan foydalanish mumkin?**

“Mediasavodxonlik” O'zMU Jurnalistika fakulteti talabalariga 2023-yildan boshlab **“Mediasavodxonlik va faktcheking”** fan sifatida o'quv dasturiga kiritilgan. Mazkur fan predmeti 15 ta ma'ruza va 30 ta amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Fan dasturini tuzish jarayonida asosiy qism nazariy yondashuvga qaratilgan, bu esa, o'z navbatida talabalarning mediasavodxonlik madaniyatini shakllantirish vazifasini qisman amalga oshirishga xizmat qiladi. Chunki, dars soatlarini tashkil qilishda an'anaviy usullardan foydalanish metodikasi raqamli asrda o'z-o'zini yetarli darajada oqlamaydi[1].

**MUHOKAMA.** Ma'lumki, sifatli dars soatlarini tashkil qilishda AKT vositalaridan foydalanish masalasi oxirgi 5 yil davomida tadqiqotchilar tomonidan yetarlicha muhokama qilindi. Tadqiqotchi N.Mirzahmedovanning **“Raqamli texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi”** nomli maqolasida “Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berish ta'lim oluvchilarning mavjud fan predmetini qabul qilish jarayonini osonlashtiradi, shuningdek, qo'shimcha imkoniyatlarni taqdim qilishi mumkin”

[Mirzahmedova N.2022.B-538] deya mulohaza bildiradi. Ushbu fikrlarning asosi sifatida Sh.Abduhakimovning **“Individualization of professional education process on the basis of digital technologies”** (Raqamli texnologiyalar asosida kasbiy ta'lim jarayonini individuallashtirish) nomli ilmiy maqolasida “Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo'lmoqda: bor-yo'g'i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi” [Sh.Abduhakimovna 2022.B-65] degan fikrlarni keltirish orqali raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga ijobiy ta'sir imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. Zamonaviy ta'limning yangi noan'anaviy usullari xususida A.Abdukadirov, S.Zakirov, O.Mamarajabov va A.Sayfullalarning **“Conditions for the development of students information competence in the aspect of the development of distance learning in the humanities”**(Gumanitar fanlar bo'yicha masofaviy ta'limni rivojlantirish nuqtayi nazaridan talabalarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish shartlari) maqolasida “Bugungi kunda talabalarning turli sohada layoqatini shakllantirish masalasida VR texnologiyalarning samaradorligini xalqaro hamjamiyat keng e'tirof etmoqda[2]. Insonning virtual haqiqatda bo'lishiga imkon beruvchi texnik qurilmalarning paydo bo'lishi ushbu texnologiyani ko'ngilochar sohada katta ehtiyojga aylantirdi. VR qurilmalari: VR bosh kiyimlar, kostyum, ixtisoslashtirilgan xonalar sizga noma'lum dunyoga kirishga imkon beradi, bu sizning barcha harakatlaringiz virtual olamdan javob berish uchun dasturlashtirilgan, bu sizga o'zingizni 100% ga virtual dunyo a'zosiga aylanishingizga imkonini beradi [Zakirov, O.Mamarajabov va A.Sayfulla.2021.B-4]. Agarda biz mazkur texnologiya imkoniyatlaridan mediasavodxonlik fan predmetini o'qitishda foydalanadigan bo'lsak, talabalarni oddiy tinglovchidan faol axborot savodxoniga aylantirishga muvaffaq bo'lishimiz mumkin”, -deb ta'kidlagan [3].

**NATIJARLAR.** AQSH va Yevropa davlatlari ta'limda VR texnologiyalarni joriy etish bo'yicha yetakchi bo'lib qolmoqda. VR

texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil qilingan ta'lim immersiv texnologiyalarga asoslanadi. **“Immersiv texnologiyalar”** deganda atrofdagi voqelikni yaxshiroq idrok etish va tushunish imkonini beruvchi reallikning virtual kengayishi nazarda tutiladi. Ya'ni, mazkur texnologiyalar tom ma'noda foydalanuvchini ma'lum bir voqea muhitiga sho'ng'ishiga ko'maklashadi [N.Krayushkin.2020.B-5.]. Bu esa, o'z navbatida ta'lim oluvchiga o'rganilyotgan fan predmetiga doir qo'shimcha resurslar bilan tanishishga imkon beradi. Misol uchun VR texnologiyalar yordamida tashkil qilingan yo'nalishlar biologiya, tibbiyot, avtomobilsozlik, astronomiya va boshqa ko'plab sohalarni bosqichma-bosqich qamrab oladi. Dastlab **“Mediasavodxonlik va faktcheking”** fanidan dars soatlarini tashkil qilish bo'yicha laboratoriyalarning tashkiliy konstruktiv mexanizmini tahlil qilamiz[4].

**Modulning maqsadi** – jurnalistika fakulteti talabalarining mazkur fan predmeti resurslarini o'rganishda samaradorlikni kuchaytirish orqali axborotni verifikatsiya qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda to'g'ri axborotni topish va saralash ko'nikmasini (mediasavodxonlikni) shakllantirishga erishish hisoblanadi. Ushbu modulni samaradorlik ko'rsatkichini quyidagi 5ta virtual laboratoriya modulida bosqichma-bosqich o'qitishdan iborat.

**Medialandshaf tizimlarida o'zaro axborot almashinuv jarayoni laboratoriyasi** – ushbu modul bo'limida talabalarining global axborot makonida kanallarda axborot uzatish hamda tizimli texnologiyalar bilan yaqindan tanishib, aniq bir tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

**2. Media makonda feyk va dezinformatsiya ko'rinishlariga oid laboratoriyasi** – mazkur modulda feyk va dezinformatsiyaning ko'rinishlari kommunikatsiya vositalari orqali tahlil qilinadi. Xususan, modulda tashkil qilingan virtual muhit talabalarining axborot xurujlari(audio, video foto, matnli)ning turli xil ko'rinishlari bilan yaqindan tashish imkonini beradi.

**3. Feyk va dezinformatsiya yaratishda foydalaniladigan onlayn instrumentlari bilan tanishish laboratoriyasi** - ushbu modulda feyk va dezinformatsiya ko'rinishlari bilan yaqindan

tanishtirilgan talabalar navbatdagi bosqichda ularni yaratish texnologiyalari hamda mediamahsulot tarkibida qo'llanilgan soxtalashtirilgan va yo'naltirilgan detalizatsiya qismlari bilan tanishib chiqadilar.

**4. Faktcheking instrumentlaridan foydalanish laboratoriyasi** – navbatdagi bosqichda feyk va dezinformatsiya materiallarini tekshirish usullari, ya'ni onlayn faktcheking instrumentlari bilan tanishib foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

**5. Mediasavodxonlikni aniqlovchi psixoanalizator laboratoriyasi** – ushbu bosqichda yuqorida o'qitilgan 5 ta virtual modulda olingan bilimlar psixoanalizator yordamida sinovdan o'tkaziladi. Beriladigan sinov turlari test, mantiqiy grafika, audio shaklidagi savolnomalarni o'z ichiga qamrab oladi. Natijalar ko'rsatkichi tahsil olgan guruhdagi eng yuqori qayd etilgan balldan pastga qarab saralab olinadi [5].

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda VR texnologiyalaridan foydalangan holda jurnalistika fakulteti talabalarining mediasavodxonligini oshirishning avfzalligi quyidagicha:

**Ko'rinish.** Virtual makon real dunyoda kuzatish imkonsiz yoki juda qiyin bo'lgan obyektlar yoki jarayonlarni batafsil ko'rib chiqish imkonini beradi.

**Diqqat.** Virtual dunyoda talabalarga tashqi muhit deyarli ta'sir qilmaydi. U materialga to'liq e'tibor qaratishi va uni yaxshiroq o'rganishi mumkin.

**Ishtirok etish.** O'quv jarayoni yuqori aniqlik bilan dasturlashtirilishi va boshqarilishi mumkin. Virtual borliqda talabalar faktcheking o'tkazishlari va turli xil feyk va dezinformatsiyaga oid ma'lumotlarning shakllarini ko'rishlari va murakkab axborot verifikatsiya muammolarini yanada qiziqarli va tushunarli tarzda hal qilishlari mumkin.

**Xavfsizlik.** Virtual borliqda talabalar o'quv-modulidan qat'i nazar xavf-xatarsiz murakkab amaliyotlarni bajarishlari mumkin bo'ladi.

**Samaradorlik.** O'tkazilgan tajribalarga asoslanib, VR-dan foydalangan holda o'qitish samaradorligi klassik formatga qaraganda kamida 10% yuqori ekanligini Amerikalik olimlar o'z tadqiqotlarida isbotlab ulgurgan.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Намазов Б., Файзиёва М., Джалилов Ф. Baktria Медиа ва ахборот саводхонлиги. Педагоглар учун методик қўлланма. Press Тошкент – 2018.
2. Mirzahmedova N. Raqamli texnologiyalarining ta’lim sohasida qo’llanilishi. Maqola. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor.2022. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-2-538-545>
3. Shaxnoza Abduhakimovna Abduraxmanova. Individualization of professional education process on the basis of digital technologies. World Bulletin of Social Sciences, 2022. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/721>
4. Abdukadirov A., Zakirov S., Mamarajabov O., Sayfulla A. “Conditions for the development of students' information competence in the aspect of the development of distance learning in the humanities”. 2021. International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2021. doi: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670214
5. Krayushkin N. Виртуальная реальность в образовании. 2020. <https://hsbi.hse.ru/articles/virtualnaya-realnost-v-obrazovanii/>

